

MAQOMLAR, PARDALAR: “USHSHOQ” MISOLIDA



Abror Zufarov

“Maqom cholgʻu ijrochiligi” kafedrası dotsenti, 3-bosqich
mustaqil izlanuvchi

Yunus Rajabiy nomidagi OʻzMMSI

Email: abrorz@mail.ru

DOI: <https://doi.org/10.37547/ssa-V4-07-01>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Oʻzbek milliy musiqa sanʼati, xususan maqomlar parda tizimi shakllanishida Sharq allomalari qoʻshgan hissalar haqida soʻz boradi. Maʼlumki, milliy musiqa tarixi juda ham uzoq oʻtmishga borib taqaladi. Milliy musiqa anʼanasi silsilasi bilan chambarchas holda bizning kunimizga qadar yashab kelmoqda. Uning bunday umrboqiyiligiga sabab yuqorida keltirilgandek Sharqning buyuk mutafakkir olimlarining salmoqli mehnatlaridir.

Kalit soʻzlar: Sharq allomalari, ijod, tarix, maqomlar, musiqiy tovush tizimi, ijrochilik, anʼana, milliy musiqa.

Аннотация: В данной статье говорится о вкладе учёных Востока в формирование узбекского национального музыкального искусства, в частности, звуковой системы макомов. Известно, что история национальной музыки уходит в очень далекое прошлое. Традиционная музыка тесно связана с традицией исполнения макама и живет по сей день. Причина его долголетия – великие труды великих мыслителей Востока, о которых говорилось выше.

Ключевые слова: восточные ученые, творчество, история, макомы, звуковая система, исполнительство, традиции, национальная музыка.

Abstract: This article discusses the contribution of Eastern scholars to the formation of Uzbek national musical art, particularly the sound system of maqoms. It is known that the history of national music dates back to ancient times. Traditional music is closely linked to the tradition of performing maqoms and continues to thrive to this day. The reason for its longevity lies in the great works of the prominent Eastern thinkers mentioned above.

Key words: Eastern scholars, creativity, history, maqoms, sound system, performance, traditions, national music.

Rivoyat: Bir kuni shoir Mashrabga piru ustoz tanbur tuhfa etibdi. Mashrab ilgari bu chogʻuni koʻrmagan ekan bu ne cholgʻu deya soʻrabdi. Shunda ustoz: “bu setordir, seni Ollohga yetishishing yoʻlidagi maqomlarga elitadi debdi. Bu cholgʻuni Jabroil soʻfiylarning sirdoshi boʻlgan tut daraxtidan yasab bergan. Uning kosasini masjid gumbazining shaklidan oldi. Tokim ichida qurʻon oʻqilganda taraladigan sado boʻlsin deb. Dastasini xaq yoʻlidan oldi toʻgʻri va uzun boʻlsin deb. Unga kumushdan uch tor tortib faqat birida chalinsin dedi. Bilki, Olloh yagonadir shu sabab deb “Vahdoniyat” torini oldinga chiqardi. Oʻrta torni hamohang etib, Jabroildan, uchinchi torni birinchiga joʻr etib rasuldan sado boʻlsin dedi. Oʻng qoʻling shaxodat barmogʻiga kumush nohun taqib, namozning besh vaqtdan olib besh zarba urgin dedi. Shunda Mashrab zikru-samo etib quyidagi gʻazalni aytgan ekan:

*Setorim torigʻa jon rishtasidin tor eshib cholsam ,
Aning xush nolasidin bevafoning koʻnglini olsam.
Maqom olib maqom uzra maqomin dilgʻa jo qilsam ,
Muhabbat sozigʻa sozlab men oning oldida cholsam .
Maqomlaring atosini “Husayniy” u “Ajam” derlar,
Bulardin ham yuqori pardaida “Chorgoh” cholsam .
«Bayod» dilbarimni yodida cholsam payopaykim*

*Ki, ko'ngul benavo bo'lg'onidin aylab "Navo" cholsam .
Arolab cholsam "Ushshoq"u g'azalli soza yetkursam,
Saharlarda qo'pub mashshoqlardin purziyo cholsam.
Kel, ey Mashrab, qadah sung'il, bo'loyin mast-mustag'raq,
Bir ilkg'a kosai tanbur, birig'a jomni olsam.*

Maqomot san'ati dunyo musiqiy madaniyatidagi eng muhim hodisotlardan hisoblanadi. Maqomlar o'z ichida qadimgi davrlardan to hozirgi kungacha Sharq xalqlarining daholari tomonidan yaratilgan yuqori professional darajadagi, chuqur mazmun, turli xil vokal va cholg'u namunalaridan iborat bo'lgan musiqiy marvaridlarni umumlashtirgan holda xalqimizning nozik qalbi, keng dunyoqarashi, didi, dono va falsafiy g'oyalarini o'zida aks ettirdi. Shu bilan birga maqomlar musiqiy madaniyatning ulkan bazasi sifatida xalqimizning yuqori badiiy salohiyatdagi bastakorlik ijodining yuksak darajada ekanlini dunyoga tan oldirdi. Ushbu an'analar bizgacha og'zaki shaklda yetib keldi. Aynan ustoz shogird orqali avaylab asrab kelingan mazkur musiqiy merosning abadiyligi va bebaho qadriyat sifatida e'tirof etilishining siri ham shunda deyish mumkin. Maqomlarning bu yo'sindagi shakllanishi mustahkam asos ega, ammo o'ziga xos rang-barang, yangi ko'rinishlarda rivojlanishini taqazo etdi. Tarixiy taraqqiyot davomida xalq mumtoz musiqasi, maqom san'ati, xalq bastakorlik yo'llari, shuningdek, folk-lor - havaskorlik musiqiy merosi singari shaklan va usluban bir-biriga yaqin ijrochilik ko'rinishlari bir-birini to'ldirib keldi. Ushbu musiqiy merosimiz bugungi kunimizda ham ma'naviy madaniyatimizning bir bo'lagi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Bugungi kunda yurtimizda milliy-ma'naviy qadriyatlarimizga, urf-odatlarimizga, unutilayozgan, tarixan qadrlanib an'analarimizga bo'lgan e'tibor, ularni yangidan isloh etish jarayoni ustivor yo'nalish kasb etdi. Milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, ma'naviy boyligimizga bo'lgan e'tibor davlat miqyosiga ko'tarildi. Hozirda ota-bobolarimizdan, ajdodlarimizdan qolgan ma'naviy boyliklarni, jumladan, musiqiy madaniyatni avaylab asrash, tiklash borasida, qolaversa, zamon bilan hamohang qadam tashlash borasida talaygina ishlar qilinmoqda. Bu borada o'tgan ajdodlarimiz bizlarga meros qilib qoldirib ketgan ulkan ma'naviy boyligimiz asosiy omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Mustaqillik taraqqiyoti yillarida to'plangan tajriba, dunyoqarash jamoatchiligi Yangi O'zbekiston deya e'tirof etgan o'zimizga mos taraqqiyot yo'li-kelajagi buyuk davlat barpo etish borasida amalga oshirilayotgan barcha tarixiy o'zgarish va yangiliklar xalqimiz qalbi ongi va g'ururiga ulkan ta'sir ko'rsatmoqda. Shu ta'sirlar natijasi o'laroq O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 26-maydagi PF-6000-son Farmoniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tizimida Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti tashkil etildi.

Tarixdan ma'lum, ma'naviyatimizning asosiy bo'g'ini bo'lgan musiqiy madaniyatimiz, an'anaviy ijrochilik, maqom ijrolari va bastakorlik hamisha xalqimizning kundalik hayotida ma'naviy ozuqa sifatida e'tirof etib kelingan.

Bugungi kunda ham xalqimiz tomonidan sevib tingalanadigan "Ushshoq"lar ham o'z tarixiga egadir. Chunonchi ushbu musiqiy-madaniy meroslarning yaratilishi va bizgacha ardoqlanib kelishida buyuk Sharq mutafakkir, allomalarining qo'shgan hissasi beqiyos. Ularning qilgan mehnatlari ko'p yillar davomida qator olimlar tomonidan o'rganilib kelmoqda. Nafaqat bizning yurtimiz balki, qo'shni mamlakat, chet ellarda ham bu xususida qator ilmiy ishlar, mavzuga oid dissertatsiyalar, yuzlab ilmiy maqolalar chop etilgan. Bizning musiqiy madaniyatimiz Sharq islom sivilizatsiyasining mahsuli deb e'tirof etiladi. Chunki, olimlarning ta'kidlashicha Islom renesansi davrida barcha sohalar kabi madaniyat, san'at sohalarida ham yuksak ishlar amalga oshirildi. O'rta asr Sharqida musiqa nazariyasi O'rta Osiyo olimlari tomonidan ham yaratildi. Abu Yusuf Yoqub Al-Kindiy(870-873 vafoti), Abu Nasr Al-Forobiy (873-950), Abu Ali ibn Sino(980-1037), Safiuddin al-Urmaviy(1216-1294), Qutbiddin Al-Sheroziy (1236-tug'ilgan), Abdurahmon Jomiy(1414-1492) kabi mutafakkirlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda mazkur masalalar keng yoritilgan. Mazkur allomalarning qilgan benazir mehnatlari keyingi davrlarda yuzaga kelgan

maqomlar, xususan o'n ikki maqom tizimlari yaratilishiga asos va zamin bo'lib qoldi. Ma'lumki, Ushshoq maqomi ham o'n ikki maqom tarkibida birinchi maqom bolib keladi. Ushshoq so'zining lug'aviy ma'nosi arabchadan oshiq so'zining ko'pligi, ya'ni oshiqlar degan ma'noni anglatadi. O'n ikki parda nomlari Ushshoq, Navo, Busalik, Rost, Husayniy, Rohaviy, Hijoz, Zangula, Iroq, Isfaxon, Zirafkand, Buzurg bo'lib, tarixiy adabiyotlarda ushbu pardalarning ma'nolari Islom madaniyati doirasida tushuntiriladi. Masalan, Ushshoq-Oллоhning oshiqlari, Navo – Oллоh ishqida nola, navo chekish, Busalik-haq yo'lidagi solik, yo'lovchi, Rost – haq, payg'mbarning fe'liga qiyoslik, Husayniy – Imomi Husayniy, pir, Rohaviy – haq yo'li, makka yo'li, Hijoz – muqaddas Makka yo'lidagi shahar, Zangula – Hajga elituvchi karvon tuyalariga osilgan qo'ng'iroqchalar, Iroq – Hajga borishda bosib o'tiladigan sahrolik shahar, Isfaxon- Hijozga yaqin joylashgan yer, shahar, Zirafkand – ulug' Haj amalidan so'ng tin olish, Buzurg – buyuk Alloh. Bu ma'nolar borasida yana boshqa qarashlar ham mavjud. Qadiiy risolalarda Ushshoq Ummuladvor (Maqomlar onasi) va Tarona deb ham atalgan. Ushshoq O'n ikki maqomda lad sifatida ham ma'lum bo'lib, uning tovushqatori hozirgi miksolidiy ladiga mos keladi. O'n ikki maqom tizimidagi 24 murakkabotdan biri — Ushshoqi Moya Ushshoq maqomi va Moya ovozi pardalari asosida yaratilgan. O'zbek, tojik musiqa merosida Ushshoq mustaqil maqom sifatida yetib kelmagan. Shashmaqomning Rost maqomi tarkibida bir necha sho'ba va qismlar mavjud bo'lib, ular Muhammasi Ushshoq (cholg'u qism), Talqini Ushshoq, Nasri Ushshoq, Ufari Ushshoq, Savti Ushshoq (6 qismli) deb nomlangan. Ushshoq ashula yo'llari ancha murakkab, avjlarida Namudi Uzzol va Namudi Muhayyari Chorgoxdan foydalanilgan. Ushshoq ashula yo'llari xalq orasida keng tarqalgan. O'zbek va tojik bastakorlari Ushshoqning turli variantlarini yaratgan: Hoji Abdulazizning "Samarqand Ushshog'i", Sodirxon Bobosharifovning "Sodirxon Ushshog'i", shuningdek, "Qo'qon Ushshog'i", "Toshkent Ushshog'i" va h. k. Bu Ushshoq yo'llari bir xil doyra usulida ijro etiladi. Ushshoqning patnusaki varianti va surnay yo'llari ham keng tarqalgan. Ushshoq yo'llari jozibali va ta'sirchan. Ularning boshlanish jumalari boshqa maqom va sho'balarda namud sifatida ham qo'llanilib, Namudi Ushshoq deb ataladi. Ushshoq dan, asosan, Buzruk va Rost maqomi sho'balarida, yirik shakldagi og'zaki professional musiqa asarlarida, shuningdek, bastakor va kompozitorlar ijodida (jumladan, R. Glier va T. Sodiqovning "Layli va Majnun", "Gulsara" operalarida, V. Uspenskiy va keyinchalik Yu. Rajabiyning "Farhod va Shirin" operasi va musiqali dramalarida, M. Ashrafiyning "Dilorom" operasida va b. ko'pgina asarlarida) ham foydalanilgan.


Maqomlar tovush tizimi, lad-parda tovushqatorlari bevosita qadimiy jins, jam'lar kabi musiqiy tizimlar asosida shakllanganligi borasida o'tgan mavzularda aytilgan edi. Qadimda maqomlar laddlari jam' shaklida bo'lib, ikki jins o'zaro payvand etish yo'li bilan hosil qilingan edi. Bu haqida ozarbayjon musiqashunos olimi U.Hojibekov o'zining "основы азербайджанской народной музыки"(ozarbayjon xalq musiqasi asoslari) kitobida batafsil tushuntirib beradi. Ushbu kitobning "jinslar ulanishining uslublari" deb nomlangan qismida jinslar turlari va ularning o'zaro qanday turlarda ulanishi nota misollari bilan ko'rsatib berilgan[4]. Shashmaqom lad-pardalari ham jins, jam'larni ana shunday payvandlab borilishi bilan shakllangan. Ammo tegishli tadqiqotlarda shashmaqom lad-pardalariga nisbatan bunday yondoshuvni uchratmaymiz. Aksincha shashmaqom lad tonallik tizimi asosida rivojlangan deb keltiriladi.

"XVIII asr o'rtalarida Buxoro amiri saroyida Shashmaqom turkumining shakllanishi amaliyotda tovush tizimining modal asosidan lad tonallik tizimi foydasiga uzil-kesil burilishini hal qilib berdi. Aynan lad tonallik tizimi yirik va mukammal tuzilishdagi Buxoro Shashmaqomining shakllanishida asosiy omil bo'lgan deyishimiz mumkin. Binobarin, umum holda lad tonallik tafakkuriga erishmay turib, bunday tizimli va yaxlit turkum janrini barpo etish amrimahol edi. Tovush tizimining lad tonallik tizimga bu shakldagi muvofiqlashuvi asnosida cholg'u va aytim yo'lidagi ko'p sonli mumtoz asarlar namunalari yahlitlashuvi sodir bo'ldi".[к вопросу о ладовой и идейной преемственности бухарского шашмакома О.Иброhimov. "Консерватория" журналі 2019 №2 (44)]


Bizning fikrimizcha maqomlarning lad-pardalar masalasini jinslar kesimida o'rganishda masalaga ko'p jihatdan aniqliklar kiritish oson kechadi. Maqomlar lad-parda tuzuklariga tonallik nuqtai

nazaridan bir tomonlama o'rganilganda tushunmovchiliklar kelib chiqishi tabiiy. Masalan ma'lum bir tonallik asosida yuritilayotgan maqom jami jinslariga qaraydigan bo'lsak, ba'zi hollarda jinslar turi o'zgarishi tonallikni ham o'zgartiradi. Natijada mazkur maqom lad tonallik masalasida ikki hil tushunchalar yuzaga keladi. I.Rajabovning "Maqomlar masalasiga doir" kitobining 133 – betida Shashmaqomning yozib olinib, nashr etilgan nota kitoblarida ba'zi maqomlar lad-pardalari borasida chalkashliklar borligi haqida gapiriladi. Xususan Rost maqomining cholg'u qismi, Saraxbor sho'balaridagi lad tizimi Do notasidan boshlanadigan qilib olinib, kalit oldida alteratsiya belgilarisiz yozilgan. Rostning Talqini Ushshoq, Nasri Ushshoq, Navro'zi Sabo, Savti Ushshoq, Savti Kalon sho'balarida kuyning boshlanadigan pardasi aslicha Do notasi qilib olinmagani uchun kalit oldidagi alteratsiya belgilar (bemol yoki diez) qo'yishga to'g'ri kelgan deyiladi. Muallif bu o'rinda mantiqan to'g'ri tanqid etadi. Masalaga yuqorida aytilganidek, lad tonallik tomonidan qaralsa shunday, ammo lad-pardalarga jins kesimida qaralganda esa boshqa manzarani ko'rishimiz mumkin. Chunki, Talqini Ushshoq, Nasri Ushshoq, Navro'zi Sabo, Savti Ushshoq, Savti Kalon kuylarida kitobda aytilganidek Do notasi mavjud bo'lsada, bu asarlar tovushqatori Rost maqomi ladi emas Ushshoq ladidan iborat. Bunda Rost maqomida Do ("Rost"jinsi) mazkur asarlarda esa Re ("Ushshoq" jinsi) boshlang'ich parda bo'lib keladi. Ushbu ikki jinslarni notada tahminan shunday ko'rsatib o'tish mumkin :

"Rost" jinsi:





"Ushshoq" jinsi:




Jinslarning bir biriga qo'shishdagi kombinatsiyalaridan jam'lar, ya'ni yangi ladlar hosil qilish an'analarini biz maqom yo'llaridagi bastakorlikda ham kuzatishimiz mumkin.

Misol uchun "Samarqand ushshog'i" (H.A.Abdurasulov bastalagan) va "Toshkent ushshogi" (M.T.Toshmuhamedov bastalagan) nomi bilan mashhur bo'lgan ashulalarning tovushqatorida jinslarining ulanishi va o'rni almashilganligini ko'ramiz. Ushbu asarlar tovushqatorlari ikki turdagi jinslardan tashkil topgan. "Samarqand ushshog'i" da avval butun parda, butun parda, yarim parda, so'ng butun parda, yarim parda, butun pardalik jinslar bo'lsa, "Toshkent ushshog'i" da esa uning aksi bo'lib, jinslar o'rni almashib keladi. Bunda avval butun parda, yarim parda, butun parda, keyin butun parda, butun parda, yarim pardalik jinslar ketma, ketligi tovushqatorni tashkil etadi.


I-jins+II-jins:




I-jinsdagi kuy bo'lag: (Samarqand ushshog'i)




II-jinsdagi kuy bo'lagi:




II-jinsdagi kuy bo'lagi: (Toshkent ushshog'i)



I-jinsdagi kuy bo'lagi:



Shashmaqomda lad-parda masalasi juda ham murakkab va yechimi qiyin bo'lgan vazifadir. Bugungi kunda maqom ijrochiligi va xususan uning ta'lim yo'nalishlarida bu borada muammolar ko'p. Ma'lumki, lad-pardalarning o'z ichki qonuniyatlari mavjud. Bular boshlang'ich parda, o'rnashgan va o'rnashmagan pardalar, intervallar, tovushlarning tortilish va yechilish xususiyatlari va boshqalar. Ushbu qoidalar maqomotda lad-parda bo'yicha eng ustuvor masalalardan hisoblanadi. Hozirda maqomlarni nota yozuvi orqali talqini, ularni xromatik teng me'yordagi temperatsiyalik cholg'ularda ijro etish, xususan lad-pardalarga ma'lum tizim sifatida emas, yahlit asar holicha o'rganish va o'rgatishlar qator muammolarni keltirib chiqarmoqda. Xususan maqom ijrochiligi ta'limida bunday yondoshuv maqomotga kirib kelayotgan yoshlarga bu sohada noqis ilm berish bilan kechmoqda. Ma'lumki, O'zbek maqomlari ichida yigirmadan ziyod lad-parda mavjud. Hozirgi holatda esa ularni bir biridan farqlarini ajratib olish qiyin. Masalan ba'zi maqomlarni asar holatidan lad tovushqatori pog'onalarini ko'rinishida oladigan bo'lsak fikrimiz yanada tushunarli bo'ladi.



Biz bu yerda ikki turdagi jins misolida keltirishimizdan maqsad har bir maqomda u yoki bu jinslar qo'shilishi yoki aralash holda kelishini nazarda tutdik. Hozirda yuqorida keltirilgan yigirmadan

ziyod lar-pardalalar shu ikki tizimda talqin etilarkan, maqomlarning o'ziga xos ohanglarini saqlab turish, ularni bir biridan farqini ko'rsatish, o'rganish masalasi tobora sayozlashib borishi muqarrar. Talabalar asosan audio yozuvlaridan yahlit asarlarni o'rganar ekanlar lad-parda tizimi bo'yicha to'liq tasavvurga ega emaslar. Ba'zi hollarda esa xatto muallimlarning o'zida ham shunday holatlar kuzatiladi. Ko'pincha birinchi jinsga ta'luqli "Bayot" "Dugoh", "Rost" maqomlari va ikkinchi jinsga ta'luqli "Segoh", "Iroq", "Ushshoq" maqomlari nola, qochirimlari va tovushlarini ohanglashtirish chog'ida adashtirib yuborish holatlari bo'ladi. Yana bir ochiq misol keltiradigan bo'lsak, so'nggi ijrolarda "Garduni segoh" kuyida segoh ladidan ko'ra iroq ladini tinglashimiz mumkin. Yoki Iroq maqomi asarlari, xususan "Saraxbori iroq"da lad jinslarining qo'shilish yerlarida lad tonallik tizimi bilan modal tizimlarining nomutanosib jihatlarini yaqqol ko'rishimiz mumkin. Albatta bunday muammolarni oson hal qilib bo'lmaydi. Tizimli va ilmiy-amaliy tadqiqot, izlanishlar bilan amalga oshirsa bo'ladi. Bunda avvalo cholg'ular va ularning parda tizimlari muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdurauf Fitrat "O'zbek klassik muzikasi va uning tarixi" T.:1993,
2. Is'hoq Rajabov Maqomlar masalasiga doir T.: 1963.
3. Otanazar Matyoqubov Maqomot T.: 2004.
4. Hojibekov U. "Основы азербайджанской народной музыки" ikkinchi nashri. Baku 1957.
5. Begmatov S. "Bastakorlik ijodi" T.; 2017.-144-b
6. G'ofurbekova X. Bastakor Saidjon Kalonov./Musiqi ijodiyoti masalalari/I to'plam. – T.; 1997.
7. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. I jild:.-T.; 2000
8. Yunus Rajabiy. Shashmaqom T., Adabiyot san'at nashr, 1972. culture".